

УДК:631.671.2:631.633.31.56.282.256.15

**ROMITAN TUMANI TUPROG‘INING MORFOLOGIK TA’RIFI VA
AGROKIMYOVIY XOSSALARI**

To‘xtayeva Gulshan Po‘lotovna

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti assistenti

E-mail: gulshantoxtayeva7@gmail.com

Mirzomurotov Maksudjon Farxod o‘g‘li

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

E-mail:mirzamuradovmaqsud08@gmail.com

Mirzomurotov Mirshod Farxod o‘g‘li

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

E-mail:mirzamuradovmirshod4@gmail.com

Annotatsiya: Buxoro viloyati sharoitida o‘tloqi - allyuvial tuproqlarning rangi sur tusli qo‘ng‘ir bo‘z tuproqlar bo‘lib, maydonlarning yuqori qismi quruq, pastga qarab namlik nisbatan ortib boradi. Tuproq tarkibidagi tuzlarning to‘planishida asosiy ko‘rsatgich, sizot suvlarining joylashish chuqurligi, daladan suvning bug‘lanishi hisoblanadi. Buxoro viloyatining qishloq xo‘jaligi uchun sizot suvlari sathining yil davomida o‘zgarib turishi muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: O‘tloqi-allyuvial tuproqlar, kuchsiz va o‘rta sho‘rlangan tuproqlar, tuproqlarning tarkibida gips uchrab turishi, mexanik tarkibi, sizot suvlar, sug‘oriladigan tuproqlar, tuproqning morfologik tuzilishi.

**МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ И АГРОХИМИЧЕСКИЕ
СВОЙСТВА ПОЧВ РОМИТАНСКОГО РАЙОНА**

Аннотация: в условиях Бухарской области цвет лугово - аллювиальных почв бурые серые почвы с сероватым оттенком, верхняя часть полей сухая, к низу влажность относительно повышена. Основным показателем накопления солей в почве является глубина залегания сточных вод, испарение воды с поля. Важное значение для сельского хозяйства Бухарской области имеют колебания уровня сизотовых вод в течение года.

Ключевые слова: лугово-аллювиальные почвы, слабосоленые и среднесоленые почвы, содержание гипса в почвах, механический состав, сизотовые воды, орошаемые почвы, морфологическое строение почвы.

**MORPHOLOGICAL DETERMINATION AND AGROCHEMICAL
PROPERTIES OF SOILS OF THE ROMITAN REGION**

Abstract: in the conditions of the Bukhara region, the color of meadow - alluvial soils is brown gray soils with a grayish tinge, the upper part of the fields is dry, the humidity is relatively high towards the bottom. The main indicator of salt accumulation in the soil is the depth of wastewater, evaporation of water from the

field. Fluctuations in the level of groundwater during the year are important for the agriculture of the Bukhara region.

Key words: *meadow-alluvial soils, slightly saline and medium saline soils, gypsum content in soils, mechanical composition, sizot waters, irrigated soils, morphological structure of the soil.*

Tuproqning morfologik tuzilishini aniqlashda sizot suvlari bo‘lgan sathigacha chuqurlikda tuproq kesmasi qaziladi va genetik qatlamlar bo‘yicha tuproqning morfologiyasi o‘rganiladi.

Tajriba dalasi tuprog‘ining rangi sur tusli qo‘ng‘ir bo‘z tuproqlar bo‘lib, tuprog‘i sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial, maydonlarning yuqori qismi quruq, pastga qarab namlik nisbatan ortib boradi. Tadqiqot olib borilgan tajriba uchastkaning tuprog‘i o‘rtacha sho‘rlangan sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial bo‘lib, o‘rtacha qumoq, g‘ovaklik, quruq qatlam pastga qarab kuchsiz zichlashgan, loyqa aralashmalari bor, mayda tosh zarralari uchraydi.

Qatlamlar bo‘yicha tuproqning tavsifi

Qatlamlar, sm	Tuproqning morfologik tavsifi
0-30	a) 0-30 sm haydaladigan qatlam quruq holda bo‘lib, tuproqning rangi och kul rangda, o‘rtacha qumoq, chuvalchang va boshqa jonivorlarning izlari bor, kam zichlashgan, g‘ovakligi zarrachalar va agregatlar orasida hamda agregatlar ichida bo‘shliqlari bo‘lganligi uchun tuproqning g‘ovakligi hamda tuproqda g‘o‘za va begona o‘tlarning ildiz qoldiqlari ko‘rinib turadi. Bu qatlamda gumus miqdori meyordan pastroq, karbonat dog‘lari ko‘rinib turadi.
30-50	b) 30-50 sm haydaladigan qatlamdan pastki qatlamda xam gumus miqdori meyordan past, kul rang, o‘rtacha qumoq, sezilarli darajada zichlashgan, namlik darajasi yuqori. G‘o‘za va begona o‘tlarning ildiz qoldiqlari uchraydi. karbonat (gips) dog‘lari ko‘rinib turadi.
50-100	v) 50-100 sm qatlamda ildiz qoldiqlari kam ko‘rinadi, tuproqning rangi sur tusli qo‘ng‘ir bo‘z tuproqlar bo‘lib, yengil qumoq, mayda donador, bu qatlamda karbonat dog‘lari ko‘proq uchraydi va qum donachalari tarqalgan. a, v qatlamlarga nisbatan namlik ancha balandroq. Tuproqning quyi qatlami rangi va zichligi bo‘yicha o‘zgarishlar bor.

D.N.Pranishnikov suvning keskin yetishmasligi bilan o‘g‘itlar zaif ta’sir ko‘rsatishini yoki hech qanday ta’sir ko‘rsatmasligini va ma’lum sharoitlarda ular hatto o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga zararli ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Oziq moddalar yetishmasligi bilan o‘simlik ma’lum miqdordagi suvni samarasiz bug‘lantiradi, chunki organik moddalarni sintez qilish jarayonlari oziqa moddalarining yetishmasligi bilan cheklanadi. Boshqa tomondan, ba’zi oziqaviy tuzlarning ta’siri ostida protoplazmaning suv xususiyatlari o‘zgaradi, o‘simlik hujayralarida osmotik bosim kuchayishini ta’kidlab o‘tgan.

A.V.Peterburskiy suv va o‘g‘itlar qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligining barqaror o‘shini ta‘minlaydigan eng muhim omillar ekanligini ta‘kidlaydi. Tuproqlarning maqbul namligi o‘g‘itlarning ta‘sirini keskin oshiradi va ular o‘z navbatida sotiladigan mahsulot birligini sintez qilish uchun namlik sarfini kamaytiradi.

Kam unumdor va sho‘rlangan tuproqlarda paxtaning yuqori va barqaror hosilini faqat sug‘orish va mineral o‘g‘itlarni qo‘llash orqali olish mumkin.

Ushbu tuproq sharoitida paxtani sug‘orish tartibining ta‘siri faqat uzluksiz sharoitda namoyon bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Islomov Ismoil “Tuproqshunoslik va dehqonchilik” Darslik. Buxoro-2021. “Durdon” nashriyoti. 257 s.
2. Kostakov A.N. Osnovi melioratsii. Selxozgiz, Moskva. 1960, 411. S.
3. Vilyams V.R. Sobrannye sochineniya, tom VII.Travopolnaya sistema zemledeliya. Izd., s/ x literaturi, Moskva, 1951, 420 s.
4. Chapovskaya Ye.V. Drojjina T.M.Islamov I. «Ekonomiya vremeni i truda» J. s/x Tadjikistana, 8,1973, 55-56 s.
5. Islomov I. Vliniya rejimov orosheniya i mineralnogo pitaniya na uroжай lyutserny pervogo goda stoyaniya v usloviyax allyuvialny lugovie pochvi Buxarskoy oblasti. Jurnal «Put nauki», №11 (81), 2020 Rossiya, Volgograd. Str.35-38.
6. Islomov I., Tuxtayeva G.P. «Rejim orosheniya xlopchatnika sorta Buxara – 8 v usloviyax allyuvialno – lugovye pochvi Buxarskoy oblasti» Xorazm, 2021. 7. Kabildjanov Alexander, Bozorov Elmurod, Okhunboboyeva Charos, Tuhtaeva Gulshan. «Intellectualization of Decision Making Support in Tasks of Optimization of Complex Technical Systems based on Anfis Neuro-Fuzzy Network» Annals of the Romanian Society for Cell Biology 2021.
7. A Anarbaev, O Tursunov, R Zakhidov, D Kodirov, U Vakhidov, E Bozorov, G Tuhtaeva, and A Babaev «Determination the installation efficiency of the evaporative air cooling in the greenhouse by temperature-moisture regime» ICECAE 2020.
8. G.P.To‘xtayeva “Vodopotreblenie i koeffitsiyent vodopotrebleniya xlopchatnika sorta-8 v usloviyax allyuvialno-lugovoy pochvy Buxarskoy oblasti” Aktualnye problemy sovremennoy nauki Izdatelstvo Sputnik, Rossiya, 109428, Moskva, № 3 (132) 2023 g, ISSN 1680-2721.
9. Islomov I, G.P.To‘xtayeva M.F.Mirzomurotov “Buxoro-8 g‘o‘za navining sug‘orish rejimini ozuqa meyoriga bog‘liqligining iqtisodiy samaradorligi”, “Suv xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani 30-31 mart 2023-yil, 119-b.
10. G.P.To‘xtayeva M.F.Mirzomurotov “Optimalniy rejim orosheniya xlopchatnika Buxara – 8 v na allyuvialno – lugovix pochvax v buxarskoy